

RUX ELEMENTINING ORGANIZMDAGI ROLI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI.

Umirzoqova Nilufar Shuxratovna

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti 1-son davolash fakulteti 202-guruh talabasi.

*Ilmiy rahbar: **Xolmurodova Dilafuz Quvvatovna***

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrası

Annotatsiya: *Rux ko'pgina fermentlar va oqsillar tarkibiga kiradi. Rux ionlari odam organizmidagi qand almashinuv jarayonlarini boshqarishda ishtiro etadi. Organizmga tushgan rux ionlari 3 soat ichida ko'p miqdorda oshqozon osti bezi, jigar va suyaklarda yig'iladi va shundan so'ng boshqa a'zo va to'qimalarda yig'ila boshlaydi. Ichki sekretiya bezlari ya'ni jinsiy bezlarning faoliyati ko'p hollarda rux ioniga bog'liq bo'ladi.*

Rux elementining organizmdagi ahamiyatini va enteropatik akrodermatitni patalogiyasini o'rganish.

Rux insulin gormoni tarkibiga kirib uning gipoglikemik ta'sirini oshiradi. Rux organizm uchun zarur bo'lgan kimyoviy reaksiyalar va jarayonlarda ishtirok etadi. Masalan: hujayraning bo'linishi, o'sishi; terining doimiy yangilanishi; hujayralarda energiya almashinuvi; suyaklar, mushaklar va mushak-suyak tizimining boshqa tuzilmalarning o'sishi; immunitet tizimining ishlashi; miya rivojlanishi va faoliyati; insulin va radopsin sintezi; A vitamining so'rilishi kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Enteropatik akrodermatit bu asosan bolalar organizmida rux yetishmovchiligi tufayli ichakda so'rilishning buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Ushbu kasallik vezikulobullyoz toshmalar, alopesiya va oshqozon-ichak traktida ruxning melabsorbsiyasidir, ya'ni Kron kasalligi, uzoq muddatli ovqatlanish, yog' kislotasining og'ir tanqisligi, OIV kabi holatlarda kuzatilishi mumkin. Enteropatik akrodermatit ikkilamchi infeksiyaga oli keladi. Qonda ruxning miqdori 50 mg/ml dan past ko'rsatkichga ega bo'ladi. Staphylococcus aureus tanada rivojlana boshlaydi. Uzoq vaqtli ruxning yetishmasligi oqibatida rivojlanishning kechikishi, neyro-psixolog o'zgarishlar, kayfiyatning buzilishi, asabiylashish va depressiya holatlari kuzatilishi mumkin.

Enteropatik akrodermatit klinik ko'rinishlar, qon biokimyosi, siydik(zux balansi) va genetika maslahatlari asosida tashxis qilinadi. Bemorning oshqozon-ichak traktida yallig'lanish jarayonlari fonida ikkilamchi zux yetishmovchiligi bilan farqlanadi. Enteropatik akrodermatitni davolashda

bolaning tanasidagi rux elementini darajasini to'g'irlash uchun rux preparatlardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy va biorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Qosimova S.S
2. Yusupova S. S., Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S. Vexibia Alopecroides-How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine //Global Scientific Review. – 2023. – T. 20. – С. 25-30.
3. Vexibia Alopecroides - How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine. Global Scientific Review 2023 Volume 20, October 2023.
4. Выделение и установление строение физиологически активных препаратов из растение семейства fabaceae. Илмий ахборотнома 2022-йил, 3-сон (133) С76-80.
5. Холмуродова Д.К Пути и методы получения порфиринов. International Journal of Education, Social Science. Volume-11 | 22-10-2023
6. Yusupova S.S. Holmurodova D.K. Kiyamova D.Sh. A New Source Of Biologically Active Substances Used In The National Economy And Medicine The american journal of medical sciences and pharmaceutical research 2020
7. С.С Юсупова, Д.К Холмуродова Лечебные свойства флавоноидов Биотехнология и биомедицинская инженерия, 2022 стр 255-256